

Nuh va qavmi orasida



11:05 / 01.12.2019 7066

13

Insonlar butlarga ibodat qilishni haq va sog'lom fikr deb bilardilar. Ular butlarga ibodat qilmaydiganlarni, zalolatda va ahmoqlikda, deb bilishar edi.

Ular: «Otarimiz butlarga ibodat qilishgan-ku? Nega bu ibodat qilmaydi?» deyishdi.

Nuh alayhissalom butlarga ibodat qilishni zalolat va ahmoqlik, deb bilardilar. Va otalarni zalolat va pastkashlik, deb fahmlardilar. Otalarning otasi bo'lgan Odam alayhissalom butlarga ibodat qilmagan, balki Allohga ibodat qilgan edilar. Qavm, agar ularni yaratgan Allohga ibodat qilmay, toshlarga ibodat qilsalar, zalolat va ahmoqlikdadir. Nuh qavm ichida turib, ovozi boricha: «**Ey qavm! Allohga ibodat qilinglar. Sizlarga Undan o'zga iloh yo'q. Albatta, men sizlarni**

buyuk kunning azobiga giriftor bo'lishingizdan qo'rqaman», dedi (A'rof surasi, 59-oyat).

«Uning qavmidan bo'lgan zodagonlar: «Albatta, biz seni ochiq-oydin zalolatda ekaningni ko'ryapmiz», dedilar» (A'rof surasi, 60-oyat).

U: «Ey qavmim, menda zalolat yo'q. Balki men olamlarning Robbidan Payg'ambarman. Sizlarga Robbimning yuborganlarini yetkazaman, nasihat qilaman va Alloh tomonidan siz bilmagan narsani bilaman», dedi (A'rof surasi, 60-oyat).